

TURKIY DAVLATCHILIK TARAQQIYOTI VA FOJIAVIY JARAYONLARI

Asomov Sulton Saidolimovich

Navoiy viloyat Xatirchi tuman ixtisoslashtirilgan maktab tarix fani
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14880642>

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif bir vaqtlar dunyoni titratgan turkiy davlatlar va o'lar o'rtasidagi ziddiyatlar, hamda yuqotilgan tarixiy imkoniyatlar va uning turkiy dunyo uchun keltirgan salbiy jihatlari to'g'risida imkon qadar yoritishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: Oltin O'rda, Usmonli turk davlati, Amir Temur, To'xtamish, Yildirim Boyazid.

Insoniyat tarixida turkiylar alohida davlatchilik tarixiga ega . Taxminan 5-ming yillar avval, ya'ni bronza davridan buyon turli nomlar ostida faoliyat yuritgan va turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalarining siyosiy jihatdan birlashuvi, shuningdek davlatchilik madaniyatiga qadam qo'yishi Yevroosiyo xududida ulkan siyosiy o'zgarishlarga olib keldi.


Xususan kuhna xitoy yozma manbaalarida ,ya'ni Tan sulolasi yilnomalarida "Xu" , "Xulu" , "Di" , "Ding-ling" tinling, tele, chele qabilalari haqida so'z boradi. Ushbu qabilalar VI- asr o'rtalarida turk nomi bilan maydonga chiqdi

Turkiy davlatchilik keyingi davrlarda ham turli nomlar ostida faoliyat yuritdi. Mashhur nemis professori Fritz Neumark turklar haqida shunday deydi; - " Agar siz turklarni tarixdan olib tashlasangiz tarix degan narsa qolmaydi". Turkiy davlatchilik tarixida asosan uch davrni ko'rsatishimiz mumkin . Antik, ilk o'rta asr va rivojlangan o'rta asrlar davrini ko'rsatishimiz mumkin. Alp Er Tunga asos solgan Turon davlatini Prototurk davlati deb hisoblasak, keyingi davlatchilik taraqqiyotini antik va o'rta asrlar davri deb hisolaymiz.

Tarixdan ma'lumki, Turon tarixida ilk imperiya bu Kushon imperiyasidir. Xitoy manbaalarida Yuichjlar nomi bilan shimoliy sharqdan, ya'ni sharqiy turkiston hududidan kirib keladi va Yunonbaqtriya davlatini qulatib Kanishka davrida ilk imperiyaga aylanadi. Kushonlar kelib chiqishi turkiy etnos ekanligiga shubha qilmasak ham bo'ladi. Chunki, Xitoyning shimoliy va shimoliy g'arbiy tomonlarida turkiy tilli qabilalar yashaganligi allaqachon o'z tasdig'ini topgan. Shuningdek zarb qilingan kushon tangalarida dastlab Yunonbaqtriya namunasidagi Zevs va shoh surati aks etgan bo'lsa ,

keyinchalik kushon tangalarida ot surati paydo bo'ldi. Bu arxeologik topilma Surxandaryo yodgorliklarida uchraydi. Ma'lumki ot turkiylar hayotida muxim ahamiyatga ega , Milodning boshlarida Xitoyning shimolida hozirga Mongoliyada Xunlar davlati faoliyat yuritayotgan edi. Keyinchalik bu davlat imperiya darajasiga ko'tarildi. Milodiy VI- asr o'rtalarida bu imperiya o'rnini Turk Hoqonligi egalladi. Yevroosiyo hududi XVI- asrga qadar turkiylar ta'sirida bo'ldi. Agar turkiy o'g'uzlar kichik osiyoga kirib bormaganda Islom olami o'rta asrlar va hozirgi davrda ham juda katta tahlika ostida qolardi. Arablar VII- VIII- asrlarga qadar turkiylar bilan aloqa qilganligi to'g'risida manbalarda ma'lumot uchramaydi. X-XI- asrlardan boshlab turkiylar islomni qabul qildi. Muhammad S.A.V ning Konstantinopolni zabt etish haqidagi 850 yillik bashorati aynan turklarga nasib qildi. Islom qilichi deya ta'riflangan turklar va hozirga Turkiya xristiyanlik va Islom olami o'rtasida mustahkam devor bo'lib qoldi va islomning yevropaga tarqalishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Keyingi davrlarda turkiylar tarixida yuz bergan tarixiy imkoniyat va fojiaiy jarayonlar to'g'risida tahlil qilishga harakat qilamiz. Insoniyat tarixi boshlangandan buyon yer yuzining turli mintaqalarida yashagan xalqlar turli darajada rivojlandi va o'z o'rnini qoldirib ketdi. Lekin asosiy voqealar Yevroosiyo mintaqasida yuz berdi. Ushbu mintaqa yuqorida aytganimdek turkiylar ta'sirida bo'ldi. Biz asosiy e'tiborni turkiylar tarixining XIV-XV- asrlar davriga muroojat qilamiz.

Tarixdan ma'lumki , XIV-XV- asrlarda uchta turk davlati Yevroosiyoda gegemon edi. Bu davlatlar Amur Temur davlati , Oltin O'rda va Usmonli turk davlati edi. Bundan tashqari dastlab ushbu davlatlar tarkibiga kirmagan Osiyoning ba'zi mamlakatlarida hokimiyat turkiylar qo'lida edi. Dehlida 1320-1413- yillarda turkiy TO'G'LUQIYLAR sulolasi, Ozarbayjon Iroq Kurdiston hamda qisman Eronda 1336-1432- yillarda Jaloyerlar davlati , Misrda 1250-1517- yillarda Mamluklar davlatini Movarounnahrda borgan turkiy Baxriylar (1250-1382) boshqargan . Janubiy Yamanda turkiy Amirlardan bo'lgan Rasuliylar sulolasi 1229-1454 yillarda ushbu mamlakatni boshqardi.Rasuliylarning ajdodlari O'g'uzlarga borib tutashadi. Jahonda Xitoyda Min Imperiyasi Yevropada nisbatan Angliya, Fransiya va Gabsburglar Imperiyasidan tashqari bironta davlat xalqaro munosabatlarda o'z o'rniga ega emas edi. Turkiy davlatchilikning shonli o'tmishi davrida ulkan imkoniyatlar bor edi. Agar ushbu tarixiy imkoniyatlar qo'ldan ketmaganda edi, nihoyatda ulkan hududlar va harbiy, siyosiy qudrat




turkiylar qo'lida bo'lardi. Ushbu tarixiy jarayonni uchta turkiy davlat Amir Temur davlati, Usmonli turk davlati va Oltin O'rda misolida ko'rib chiqamiz.

Tarixdan ma'lumki XIV-XV- asrlarda dunyoning siyosiy xaritasida uchta davlat G'arb va Sharqqa o'z ta'sirini o'tkazib keldi. Ushbu davlatlardan biri yuqorida aytganimdek Oltin O'rdadir.

Oltin O'rdaning XIV- asrdagi maydoni (1310 - yil) 6mln km² bo'lib, aholisi asosan- turkiylar , slavyanlar va fin-ugor xalqlari bo'lgan. Dini tangrichilik, pravoslav, islom. O'zbekxon davrida islom davlat diniga (1314y) aylanadi. Biz asosan Oltin O'rdaning To'xtamish (1380-1395y) dan keyingi holati haqida fikr yuritamiz. To'xtamish Amir Temurning yordami bilan Oltin O'rdaning taxtini egallaydi. To'xtamishdan so'ng Oltin O'rda taxtida 17 dan ortiq hukmdor faoliyat yuritdi. Biroq 1380-1480 yillardagi Oltin O'rdaning tarixi nihoyatda beqaror kechdi. To'xtamishning aybi va xatosi sabab Amir Temur o'rtasidagi munosabat buzildi. Bu holat Oltin O'rdaning keyingi taqdiriga salbiy ta'sir kursatdi. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida To'xtamish bilan bo'lgan ilk munosabat shunday boshlanadi.

"Hazrat sohibqiron muborak nafasi bilan Qo'chqor mavzeigacha bordi ul yerda eshittikim, To'xtamish O'risxondan qo'rqib qochib xizmatqa kelgusi turur (Qo'chqor mavzei hozirgi Chu daryosining shu nomli irmog'ining vodiysi. Hozir u yerda qirg'izlarning qo'chqorka nomli shaharchasi mavjud) . "..... O'zi saodat bilan Yabag'u yo'lidin qaytib O'zganda tushti va andin kuchib Samarqand sori borib tushdi. To'xtamish o'g'lonni kelturdi va beklar barcha anga o'truv borib sohibqiron qoshig'a kelturdilar..... " (Sharafiddin Ali Yazdiy Zafarnoma 121- bet) ". Yabug'u forscha matnda O'ynag'u so'zi keltiriladi Zafarnoma 1576 sahifa. Matnda ko'rinadiki sohibqiron Jeta (Sirdaryodan sharqda Irtish daryosi va Lobnor ko'ligacha bo'lgan yerlar , Mo'g'uliston deb ataladi, mashhur sharqshunos V.V. Bartold Jeta so'zini Yettisuvdagi qaroqchi deb ta'riflaydi) ga Yettisuv tarafidan borgan va orqaga cho'l orqali qaytgan. Bu holda Qizil O'rda yaqinidagi shahar bo'ladi. Sohibqiron oliyhimmatlik bilan dastlab Sabron va Sig'noq (Sirdaryoning o'ng sohilida Turkistondan keyingi yirik shahar, hozirgi savron qishlog'i , sig'noq mazkur yo'nalishda keyingi yirik shahar. Uning xarobalari hozir So'noq qo'rg'on deb atalib, Tuman Ariq temir yo'l bekatining yaqinida joylashgan. Hozirgi Qozog'iston) viloyatini To'xtamishga beradi. To'xtamish Mang'ishloq (Qozog'iston) xokimi To'yxoja o'g'lonning o'g'lidir. To'yxoja o'g'lon ham Jo'ji naslidan bo'lib o'zbek amirlaridan biridir. U Oltin O'rda xoni O'rusxon (1361-1376) ning birlashtirish g'oyasiga qarshi chiqqani uchun qatl qilinadi.



Shuning uchun To'xtamish otasini qasosini olish uchun 1376 yil O'rusxonga qarshi kurashadi va yengilib Amir Temur huzuriga panoh izlab keladi. Bu haqda Sharafiddin Ali Yazdiydan tashqari rus tarixchilari V.D. Grekov, A.Yu.Yakubovskiy, ispan tarixchisi Rui Gonzalis De Klavixolar ham ma'lumot beradi. To'xtamish Amir Temurga nonkurlik qilib o'rtadagi ahdnomani bir necha marta buzadi. Amir Temur To'xtamishga to'rt marta qo'shin bilan yordam qilib tajribali qo'mondonlaridan birini boshliq etib tayinlaydi. O'rusxon o'ldirilgan o'g'li Qutlug' Bug'aning xununi talab qilib Amir Temurdan To'xtamishni so'raydi. Shundan so'ng Amir Temurning o'zi O'rusxonga qarshi qo'shin tortadi. Amir Temur yordamida To'xtamish Oq O'rda taxtini egallaydi, so'ngra Oltin O'rda taxtini ham egallab o'z muvaffaqiyatlaridan esankirab Amir Temur yerlariga ko'z olaytiradi. 1385 yil Darband tomondan Ozarbayjonga To'xtamish 120 minglik qo'shin yuboradi. Biroq Amir Temur Shayx Ali Baxodir, Iki Temur, O'smon Abbos kabi lashkarboshilari va o'g'li Mironshoh boshliq qo'shinlarini To'xtamishga qarshi jo'natadi. Biroq Amir Temur To'xtamish bilan ahdnomamiz bor deb, qo'shinni orqaga qaytarish to'g'risida farmon beradi. Bu holatni To'xtamish o'zlik sifatida qabul qilib Amir Temurni ta'qib etishni davom ettiradi. 1388- yil Amir Temur Eronda bo'lgan vaqtda To'xtamish ta'sirida Xorazm xokimi Sulaymon So'fi va Ilyig'mish o'g'lon hamda shimoldagi ko'chmanchi o'zbek qabilalari Movarounnahr shahar qishloqlarini talon taroj qiladi. Amir Temur beshinchi marta Xorazmga yurish qilib egallaydi. Xorazm masalasi hal bo'lgach, e'tiborini To'xtamishga qaratadi va 1389 yilda To'xtamish , Xizrxo'ja , Anqato'ra va ko'chmanchi o'zbek qabilalaridan intiqom oladi. U Amir Temur ta'qibidan qochib Irtish daryosining narigi sohilidan Sibir o'rmonlariga yashirinadi. Endilikda To'xtamish masalasini hal qilishga kirishadi. 2500 chaqirimdan ziyod masofani bosib o'tib 1391 yil yozida Ural daryosidan kechib o'tib Samara yaqinida To'xtamish qo'shinini piri Sayyid Barakaning ma'naviy ta'sirida mag'lub etadi. Aynan o'sha vaqtda Sayyid Baraka

fatx va nusrat tilab Sohibqironga dedi; - Tavajjax haysu shu'ta fa-innaka mansurun deb zafar tiladi. To'xtamish bilan so'ngi to'qnashuv 1395 yil 15 aprelda bo'ladi. Terek daryosi bo'yida bo'lgan (Shimoliy Kavkazda) ushbu jangda Amir Temur hayotini Shayx Nuriddin saqlab qoladi. Amir Temur To'xtamishni taqib etadi. U 1406 yil Ediqut o'zbek tomonidan qatl etiladi. Bu harbiy muhorabadan so'ng Oltin O'rda o'zini o'nglay olmadi. Bu tarixiy jarayon natijasida Rusning kuchayishi va ozod bo'lishini 100 yilga

tezlashtirdi. Rus tarixchilari B.L. Grekov, A.Yu, Yakubovskiy, M.Ivanin va boshqalar Temurning bu g'alabasiga baho berib, avvalo sharqiy Yevropa va birinchi navbatda Rossiya uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaganlar. M.Ivanin "....bu islom himoyachisi, xristianlarning dahshatli dushmani, Muhammad Payg'ambarni chin yurakdan e'zozlovchi bo'lgan zot Oltin O'rdaning" butkul kuchsizlanishi yiqilishining asosiy sababchisi bo'lgan va bu bilan Rossiyani uning zulmidan xolos bo'lishini hamda bir qo'dratli xristian davlatining yuksalishini tezlashtirdi. (M.Ivanin "Ikki buyuk sarkarda" 178 bet) degan edi.

Xo'sh bundan kim manfaat ko'rdi. Oltin O'rda Amir Temur yurishidan so'ng kuchsizlandi va bir necha xonlikka bo'linib ketdi. Natijada azaliy turk yerlari birma-bir Rossiya tomonidan bosib olindi. Oqibatda Oltin O'rda siyosiy xaritadan o'chib ketdi. Agar To'xtamishda aql va diplomatiya ustunlik qilganda va uzoqni o'ylaganda edi, bir vaqtlar mavjud bo'lgan yirik turkiy davlat barham topmagan bo'lardi. Shuningdek Oltin O'rda fojeasiga o'xshash jarayon garchi farqli bo'lsada, Usmonli turk davlati bilan ham sodir bo'ldi. Shiddat bilan ko'chayotgan Usmonli turk davlatini Amir Temur bilan bo'lgan ziddiyat yarim asrga to'xtatdi. XV- asr boshida Yevroosiyoda gegemon bo'lgan 3 ta turk davlati o'zaro ziddiyatga borib xristian dunyosining kuchayishiga zamin yaratdi. Garchi Usmonli turk davlati yarim asrdan so'ng o'zini o'nglab olgan bo'lsada, Yildirim Boyazid kabi kuchli shaxsiyat mag'lubiyat alamidan o'zini haqoratlangan his qildi va bu holatni ko'tara olmay vafot etdi. Yildirim Boyaziddan Usmoniyalar ko'p zafarlarni ko'tish mumkin edi. Ilohiy taqdir XV- asr boshida turk dunyosiga shunday achchiq qismatni ravo ko'rdi. Bundan faqat Turk dunyosi va Islom olami zarar ko'rdi. Ayniqsa Usmonli turk davlati va Amir Temur o'rtasidagi ziddiyatni kuchayishiga g'arbdan kelgan josuslar ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy edi. Amir Temurning 7 yillik yurishi nomi bilan Kichik Osiyoga qilgan yurishi natijasida, ikki buyuk Turk hukmdori o'rtasida qarama-qarshilik borgan sayin kuchayib bordi. Bu urush bo'lmasligi mumkin edi. Agar ikki turk murosa qilganda, bir millat bir-birini qirmagan bo'lardi. Amir Temur Boyaziddan Ahmad Jaloyer va Qora Yusufni talab qiladi.

Ibn Arabshohning yozishicha Amir Temur nomasini olgach va mazmunini fahmlagach Boyazid o'rnidan sapchib turib ketgan va Amir Temurni har xil so'zlar (Xaromi, zinokor, qonxur) bilan haqoratlab, unga yozgan xatining so'ngida quyidagilarni yozgan: "... men bilamanki, bu so'zlar

seni hech to'xtatmasdan bizning mamlakatimizga tomon otlantiradi. Agar sen biz tomonga kelmasang sening xotinlaring uch taloq bo'lsin. Agar sen mening yurtimga kelsangu men senga qarshi qat'iy urush qilmay qochsam u vaqtda mening xotinlarim uch taloq bo'lsin."

Amir Temur Sulton Boyaziddan bunday haqoratli xatni olgandan so'ng ikki o'rtada qonli urush bo'lishi aniq bo'lib qoldi. Biroq fransuzlarning adibi M.A.Volter (1694-1778) Amir Temur va Boyazid o'rtasidagi urushning sababini quyidagicha keltiradi. XV- asr boshida xristianlardan yordam ololmagan Vizantiya imperatori yordam so'rab Amir Temurga muroojat qiladi. Shuningdek Pon - O'ksin qirg'oqlari tomonida Boyazid tomonidan tobe etilgan besh musulmon xukmdori ayni bir paytning o'zida Temurdan yordam so'raydi. Ana shundan so'ng Amir Temur Kichik Osiyoga yo'l oladi. Shunga o'xshash sabablar ko'plab keltiriladi.


Xullas XIV- asr oxirida Yevropa taqdiri ikki turk shaxsiyati o'rtasidagi muxorabaga bog'liq bo'lib qoldi. Amir Temurning o'z qardoshiga qarshi yurishi o'rta asrlar tarixi davrini tugashini yarim asrga to'xtatdi. Ya'ni Konstantinopol fatxini ellik yil orqaga surdi. XX- asr boshida yashagan turk adibi Dundar Alp Amir Temur haqida roman yoza turib, so'z boshida shunday deydi;- "Temur Usmonlilar ko'ksidan bir necha yara ochdi, faqat bu ishni u Usmonlilar jallodi bo'lmoq uchun emas, balki uning muxtasham hayotini, muqaddas mavjudiyatini qutqarmoq uchun bajardi. Vazifasida bir jarrohlik edi.

Butun tarixlarda istakli va istaksiz ularoq yozilganidek, Temurning maqsadi, fikri- zikri turklar birligiga xizmatdan iborat. Ana shuning uchun u bunchalar qon tuktirdi, ana shuning uchun buyuk va qutlug' bir qardoshi Yildirim Boyazid bilan urushga kirishdi, ana shuning uchun u Osiyoni boshdan oyoq otda bosib o'tdi va shu yo'lda uning nomi qonxurga chiqdi.

Bularning barchasini turklik uchun, turklarni birlashtirmoq uchun qildi.

Bu yo'lda hech bir monelik, hech bir qudrat uni bu muqaddas azmidan qaytarolmadi, qaytarishga muvaffaq bo'lolmadi....

Voo ajab! Ha buyuk zot emish bu Temur vatani uchun, millati uchun chidab bo'lmas qiyinchiliklarga, yuqotishlarga chidagan fidokorliklar ko'rsatgan ulug' inson! Faqat millatini yuksaltirish uchun qardoshi Yildirimni ham ayamagan qo'mondon!" Dundar Alp fikrni davom ettirib yana shunday deydi; "Yildirim Boyazid bilan kurashga kirishishga sabab Temurning o'zi emas, qismatdir; bu urush qazoi qadarning bir hukmidir. Bu



hukmga Yildirimu Temur , tataru turk birgalikda bosh egishga majbur bo'ldilar.

Buning uchun o'tmishda kechgan ikki qardosh g'avg'osini deb ularning avlodlari o'rtasiga nifoq urug'ini ekmakning xech keragi yo'q.

Falak qahriga uchragan va tarixda qolgan qahramonlar orasida o'z qozongan mavqeini tanitilmagan, bir hoqon bo'lsa u faqat Temurdir. Dahosi va siiyosatining aksi zarbasiga yo'liqqan bir qo'mondon bo'lsa , u ham Temurdir ”.

Professor Temur Xo'janing ta'kidlashicha Temurning davlat siyosati mavzusida kitob yozgan Mahmud Asad Bo'zqurt Mustafo Kamol Otaturkning Temurni juda yaxshi ko'rganini aytarkan bir voqeani bayon qiladi. Otaturk Temur va Boyazid jangini o'z ayonlariga xarita vositasida hikoya qilarkan shunday deydi; - “ Yildirim Temurni shunday siquvga olganki undan Temurdan boshqasi qutulib chiqib keta olmasdi ”. Men Temur zamonida tug'ilsaydim, uning qilgan ishlarini qilolmasdim . Agarda Temur mening zamonimda tug'ilsaydi, u mendan ko'ra ko'proq ishlarni bajarardi, degan ekan.

Xullas XIV- asr oxirida dunyo tarixida eng yirik muhorabalar Oltin O'rda va Usmonlilarning Amir Temur o'rtasi dagi tuqnashuvi natijasida bir millat bir -birini qonini to'kdi. O'zlarining harbiy siyosiy kuchini bir biriga sarflab , azaliy raqiblarining kuchayishiga zamin yaratib berdi va oxiri azaliy raqiblar turkiylarni mahv etdi. Nafaqat Islom davrida Islomgacha ham turkiylar o'zaro ziddiyatda bo'lib , Xitoyning kuchayishiga sabab bo'ldi. Bu o'rinda Xunlar va Turk Xoqonligi davrini nazarda tutmoqdaman. O'tmishdagi ulkan fojea shundan iboratki, mavjud tarixiy imkoniyatlar boy berildi. XVI- asrdan boshlab butun turk davlatchiligi inqirozga yuz tuta boshladi. Ayrimlari azaliy raqiblar tomonidan bosib olindi. Faqat Movarounnahrda omadi kelmagan Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda turkiy davlatchilik bayrog'ini ko'tarib chiqdi . Buyuk Mo'g'ullar Imperiyasi nomi bilan dunyoga tanilgan turkiylar Avrangzeb Olamgir davrigacha, ya'ni XVIII- asrgacha shonli tarixni bosib o'tdilar. Turkiy sulolalar ichida birontasi Usmoniylar kabi o'zoq vaqt hukmronlik qilolmadi.

Darhaqiqat turk dunyosi asrlar davomida murakkab taqdir sinovlariga muvaffaqiyatli bardosh berdi. Bu sinovlar ba'zan zafarli ba'zan fojealarga boy bo'ldi. Usmoniylarning buyuk hukmdori Mehmed Fotih (1451-1481) ni AQSH lik tarixchilar o'rta asrlar davrining tugashi va yangi madaniyatning asoschisi sifatida yuksak baho bersalar, garchi mavzuimizga

aloqador bo'lmada Amur Temur shaxsiyatini esa biz ikkinchi Islom renesansiga asos solgan zot sifatida qadrlaymiz. Pokistonlik tarixchi olim Ahmad Xasan Amir Temur tavalludining 660 yilligi (1996) tantanalari arafasida ingliz tilida Amir Temur haqida kitob yozdi.

Kitobga so'z boshi yozgan Faxar Zaman Amir Temurning dunyo madaniyati taraqqiyotiga jahonshumul xizmatlarini qayd etib, bunday deydi;

- "Ishnonamanki bu kitob Amir Temur va uning avlodlarini jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini nuqtai-nazaridan yangitdan o'rganishga zo'r qiziqish o'yg'otadi". Pokistonlik olim Ahmad Xasan o'z asarida shunday deydi; - "Hozirgi zamon tarixi Amir Temurning buyuk shaxsiga yetarli e'tibor bermadi. U Osiyoda turk Islom yuksalishiga asos soldi. Tarix uning ilmiy amaliy bilan tenglashadigan boshqa bir muqobil hodisani bilmaydi. Amir Temur dunyoga kelmaganida Hindistonda buyuk Imperiya bo'lmagan, Samarqand va Buxoro bunchalik gullab yashnamagan bo'lardi...". Venger tarixchi sharqshunos olimi Xerman Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi" asarida, dunyo turklari ichida eng buyugi Temurdir. Haqiqiy turklik davri Osiyoda Amir Temurdan boshlandi deb uning shaxsiyatiga yuksak baho beradi.

Xullas Amir Temur va Yildirim Boyazidning o'rtasida qanday ziddiyatli va fojiviy munosabat bo'lmasin, butun turk dunyosining iftixori bo'lib qolaveradi. Agar Temur Turk Islom Dunyosini birlashtirib imperiya tuzgan bo'lsa, Boyazid va Usmoniylar g'arbiy Islom dunyosini bir bayroq ostida birlashtirdi. XIV- asr oxirida butun dunyoning taqdiri shu ikki turk shaxsiyatiga bog'liq bo'lishi ham, voqea qanday tus olishidan qat'iy nazar buyuk turkchilikka faxr bag'ishlaydi. Ozarbayjon dramaturgi Samad Vurg'unning hazil aralash e'tiroficha shunday badiiy manzara aks etgan epizod mavjud; - "Dunyoning ishlarini qara deydi Temur, nahotki bu dunyo mendek bir oqsoq va sendek bir ko'zi ojizga bog'liq bo'lib qolgan bo'lsa". Ikki buyuk shaxsiyat zamona ruhi bilan qaraganda o'z vatani uchun qaysidir jihatdan foydasi tegdi. Muqaddas ona yurti uchun tirikligida nimadir qila oldi. Nemis klassik falsafasining asoschisi G.Gegel shunday degan edi; - "Ma'rifatli xalqlarning xaqiqiy jasorati vatan yo'lida qurbon bo'lishga hozir ekanliklarida aks etadi". Yoki fransuz mutafakkiri J.Russoning fikricha, saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga bo'lgan muhabbat tufayli vujudga keladi degan iborasi eng muqaddas qadriyat kabi tarixda o'tgan hukmdorlarning faoliyat natijasi qanday tugashidan qat'iy nazar, o'z millati va o'z mamlakati kelajagi yo'lida qilgan tarixiy xizmatlari bilan o'lchanadi.



Nima bo'lganda ham taqdir ikki qardoshga qanday qismatni ravo ko'rishidan qat'iy nazar yuqorida aytganimdek jahon turkchiligining faxri bo'lib qolajak. Agar o'sha davrda qardoshlik tuyg'usi kuchayib o'zaro murosaga kelinganda edi, taxminan 15mln km² dan ortiq xududda mustaqil turkiy davlatlarning bayroqlari xilpirab turgan bo'lardi. Bugungi kunda dunyoning siyosiy manzarasi mutlaqo boshqacha bo'lardi. Chunonchi XV-XVII- asrlarda Usmoniylarning xududi 5 mln km², Oltin O'rdaning xududi XIV - asrda 6 mln km² va Amir Temur saltanatining xududi 4,4 mln km² maydondan iborat edi. Vassal va qaram xududlar bundan mustasno. Ana shu yuqotilgan achchiq qismatni chuqur tahlil qilgan birinchi o'zbek professori Abdurauf Fitrat 1917 yil iyul oyida shunday satrlarni yozadi;

“Ey ulug' Turon arslonlar o'lkasi ! Senga ne bo'ldi? holing qalaydir ?

Ey Temurlarning O'g'izlarning oilalarining shonli beshiklari !, Qani Uchiqdig'ing yuksak o'rinlar? Qullik chuqurlaring'a nedan tushting

... Yer yuzining buyuk saltanatlarini sen qurmadingmi ? Hindistonning , Ovruponing ulug' hoqonlarini sen yubormadingmi ? Ey , hoqonlar uchog'i”. Har bir davrda bu millatni faqat harbiy, siyosiy jihatdan emas, balki ma'naviy va g'oyaviy jihatdan birlashtiradigan ulug' zotlar bamisoli yashin misoli o'z missiyasini bajarib ketdi. Butun turk dunyosini ma'naviy jihatdan birlashtirishda ilk qadamni Alisher Navoiy amalga oshirgan bo'lsa, tarqalib ketgan turk dunyosini ijtimoiy taraqqiyotda taraqqiy etgan millatlar qatoridan o'rin egallashini maqsad qilgan Qrim tatar xalqining buyuk farzandi Ismoil G'aspirali o'z qadamini tashladi. U Rossiya imperiyasining zulmi ostida ezilgan turkiy dunyoga ma'rifiy yurishni boshladi. Ismoil G'aspiralining bu harakati butun turk dunyosini g'oyaviy jihatdan birlashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. XX- asr oxirida sobiq SSSR ning barham topishi turkiy davlatlarning mustaqil bo'lishiga imkon yaratdi. XXI- asrda turkiy davlatlar o'rtasidagi ma'naviy , iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning chuqurlashuvi, o'tmishda qilingan xatolarni bundan buyon takrorlanmasligi uchun amaliy qadamlar tashlangan bo'lsa ajabmas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Zafarnoma” Sharafiddin Ali Yazdiy. Yangi asr avlodi 2023 yil
2. “ Temur tarixida taqdir ajoyibotlari ” Ibn Arabshoh. Mehnat nashriyoti 1991 yil.
3. “ Amir Temur ” Marsel Brion Parij. Alben Mishel nashriyoti 1963 y
4. “ Sharqning buyuk xukumdori ” Dundar Alp. Istanbul 1910 yil Toxir Qaxxorning o'zbekchaga tarjimas. 2018 yil .





5. “ Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi ” Xerman Vamberi. G'ofur G'ulom nashriyoti 1990 yil .
6. “ Vatan tarixi ” Shodi Karimov. O'qituvchi 1997 yil
7. “ Jahon tarixidagi sulolalar va davlatlar ” Qahramon Rajabov, Bahodir Qandov. Toshkent. O'zbekiston 2015 yil .
8. “ Vatan tuyg'usi ” O'zbekiston . Toshkent 1996 yil
9. Fan va turmush jurnali . № 3 1999 yil.

